

## **TIBBIYOT SOHASIDA IJTIMOIY AHAMIYATGA EGA BO'LGAN LOYIHALARNI BOSHQARISH**

*Aliyev Xumoyun Umar o'g'li*

*Raqamli iqtisodiyot va agrotexnologiyalar universiteti*

*Magistratura bosqichi "Loyiha boshqaruvi" guruhi 1 kurs talabasi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tibbiyot sohasida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni boshqarish jarayonining nazariy va amaliy jihatlari keng yoritilgan. Tibbiy loyihalarni samarali yuritish uchun zarur bo'lgan resurslar rejalashtiruvni, ehtiyojlar monitoringi, kommunikatsion strategiya, monitoring va baholash tizimlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xalqaro tajribalar misolida sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan ijtimoiy loyihalarning muvaffaqiyat omillari tahlil etilgan. Maqola sog'liqni saqlash tizimi menejmenti, davlat siyosati va tibbiy xizmatlarning sifatini oshirishga oid tadqiqotlar uchun nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** tibbiy loyihalari, sog'liqni saqlash, boshqaruv, menejment, ijtimoiy ahamiyat, kommunikatsiya, monitoring, xalqaro tajriba.

### **KIRISH**

Zamonaviy jamiyatda sog'liqni saqlash tizimi nafaqat davolash, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy institutlardan biri sifatida e'tirof etiladi. Aynan shu bois, tibbiyot sohasida amalga oshirilayotgan har qanday tashabbus va islohotlar bevosita millionlab insonlar hayot sifati, umr davomiyligi va ijtimoiy farovonlik bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda sog'liqni saqlash tizimida ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan loyihalarni samarali boshqarish masalasi har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Tibbiy loyihalari odatda keng ko'lamli, ko'p bosqichli, texnologik va byurokratik jihatdan murakkab tizimda kechadi. Ular qatorida onalik va bolalikni muhofaza qilish, yuqumli kasalliklarning oldini olish, skrining dasturlarini joriy etish, onkologik yoki endokrin kasalliklar bo'yicha ixtisoslashgan markazlar tashkil etish, aholini ijtimoiy-iqtisodiy zonalar bo'yicha tibbiy xizmatlar bilan teng ta'minlash kabi yo'nalishlar alohida o'rinnegallaydi. Ushbu loyihalarning muvaffaqiyati esa, eng avvalo, ularni boshqarish madaniyati va menejment strategiyasiga bog'liqdir [1].

### **ASOSIY QISM**

Birinchi navbatda, tibbiy loyihalarni boshqarishda ijtimoiy so'rov va ehtiyojlar monitoringi muhim ahamiyatga ega. Har bir hududda mavjud bo'lgan sog'liq bilan bog'liq muammolar o'ziga xosdir: masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasida havoning ifloslanishi bilan bog'liq bronxial kasalliklar ko'p bo'lsa, Surxondaryoda o'smirlar orasida gemoglobin yetishmovchiligi muammosi dolzarb bo'lishi mumkin.

Shu bois, loyiha boshqaruvchilari birinchi bosqichda epidemiologik va ijtimoiy-demografik axborotlarni mukammal tahlil qilishi, muammolarni aniq aniqlashi lozim [2].

Ikkinci muhim bosqich — resurslarni rejalashtirish va yo‘naltirish. Tibbiyotdagi har bir loyiha, hatto eng kichik tashabbus bo‘lsa ham, inson hayoti bilan bog‘liq. Shu sabab, budget, kadr, texnologik baza, dori-darmon zaxiralari kabi resurslar aniqlik bilan belgilanishi, har bir bosqichda shaffof tarzda boshqarilishi zarur. Tibbiyotda inson omili muhim o‘rin egallaydi, shuning uchun loyihalarning asosiy ijrochilari — shifokorlar, hamshira, feldsher, epidemiolog, laboratoriya mutaxassislarining kasbiy va ma’naviy tayyorgarligi oldindan rejalashtirilishi shart.

Uchinchi muhim omil — loyihaning kommunikatsion strategiyasi. Bugungi kunda hatto eng ilg‘or tibbiy loyiha ham aholiga to‘g‘ri yetkazilmasa, uning samarasi past bo‘ladi. Ayniqsa, profilaktika va tarqatilayotgan axborotlar bo‘yicha ishonch darajasini oshirish lozim. Masalan, vaksina bo‘yicha noto‘g‘ri ma’lumotlar loyihaning ijtimoiy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan tibbiy loyihalar doirasida aholining xabardorligini oshirish, tibbiy savodxonlikni targ‘ib qilish, OAV va blogerlar bilan samarali ishslash – boshqaruv strategiyasining ajralmas qismidir [3].

To‘rtinchi jihat — monitoring va natijalarni baholash. Loyerha faqat boshlanishi bilan emas, uning uzoq muddatli ta’siri bilan baholanadi. Har bir bosqichda oraliq natijalar, samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI), moliyaviy taqsimot, foydalanuvchi roziligi, xizmat sifati kabi mezonlar asosida tahlil qilinadi. Masalan, onalar o‘limi ko‘rsatkichini pasaytirish bo‘yicha olib borilgan loyiha natijasida ikki yil ichida viloyat miqyosida 30 foizlik ijobiy o‘sish qayd etilsa, bu indikatorlar loyiha muvaffaqiyatining isboti bo‘la oladi.

Xalqaro tajriba ham shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot sohasida ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalar ko‘pincha sog‘liqni saqlash bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan sohalar — ta’lim, ekologiya, ijtimoiy yordam, gender tengligi, transport infratuzilmasi bilan ham integratsiyada amalga oshiriladi. Misol uchun, BMT YUNISEF va WHO tomonidan amalga oshirilgan “Healthy School Environment” loyihasi nafaqat sanitariya sharoitlarini yaxshilagan, balki bolalardagi xulq-atvor, ovqatlanish va gigiena madaniyatini ham ko‘tarishga xizmat qilgan. Shu jihatdan O‘zbekistonda ham loyihalarni boshqarishda ko‘p sektorli yondashuvga alohida e’tibor qaratilmoqda [4].

## **XULOSA VA MUNOZARA**

Yakuniy xulosa o‘rnida aytish joizki, tibbiyotdagi har qanday ijtimoiy loyiha – bu biror inshoot qurish yoki apparat sotib olish emas, balki inson hayotini saqlab qolish, sog‘lom avlodni shakllantirish va kelajakka sog‘lom jamiyatni yetkazish vositasidir. Loyihalarni samarali boshqarish esa – faqat moliyaviy intizom emas, balki

kasbiy fidoyilik, puxta rejalashtirish, ijtimoiy mas'uliyat va xalq bilan doimiy aloqaning mevasidir.

### **ADABIYOTLAR RO`YXATI**

1. Абдуллаев А.Х. Соғлиқни сақлаш тизимида лойиҳаларни бошқариш асослари. – Т.: «Иқтисод», 2022. – 180 б.
2. Курбонов Ф.Т., Юсупова С.Н. Тиббиётда стратегик бошқарув ва сифат назорати. – Самарқанд: СамТИ, 2021. – 156 б.
3. World Health Organization. A guide to health project management. – Geneva: WHO Press, 2020. – 94 p.
4. UNICEF & WHO. Integrated Health Projects in Developing Countries. – New York: United Nations Publications, 2019. – 122 p.